



Orzigul FAYZULLAYEVA,
Navoiy davlat universiteti magistranti
E-mail: orzigulfayzullayeva0@gmail.com

Filologiya fanlari doktori DSc, professor N.J.Yarashova taqrizi asosida

THE EMERGENCE OF NEOLOGISMS IN THE WORKS OF FARIDA AFRUZ

Annotation

This article explores the individually coined words in the works of Farida Afruz. It discusses the role of these personal neologisms in literary texts and analyzes their semantic meanings. Special attention is given to newly formed, particularly simple word formations created by the poetess.

Key words: Seme, lexeme, occasionalism, neologism, linguostylistics, borrowed layer.

ПОЯВЛЕНИЕ НЕОЛОГИЗМОВ В ТВОРЧЕСТВЕ ФАРИДЫ АФРУЗ

Аннотация

В данной статье рассматриваются индивидуально образованные слова в творчестве Фарида Афруз. Дается оценка роли индивидуальных неологизмов в художественном тексте, анализируется их семантическое значение. Особое внимание уделяется новым, в частности, простым словообразованиям, созданным поэтессой.

Ключевые слова: Сема, лексема, окказионализм, неологизм, лингвостилистика, заимствованный слой.

FARIDA AFRUZ IJODIDA NEOLOGIZMLARNING VOQELANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada Farida Afruz ijodidagi individual yasalma so'zlar haqida fikr yuritamiz. Individual yasalmalarning badiiy matnda tutgan o'rni, anglatgan ifoda semalari haqida munosabat bildiramiz. Shoiri ijodida yasalgan yangi yasalmalar, xususan, sodda yasalmalarni tahlil qilib munosabat bildiramiz.

Kalit so'zlar: Sema, leksema, okkazionalizm, neologizm, lingvostilistik, o'zlashma qatlam.

Kirish. Biz ona tilimizni bir ummon deb hisoblaymiz. Chunki ummon ostida qanchadan qancha javohirlar yotadi. Tilimiz ham ana shu ummon kabi o'z bag'rida javohirlarga teng bo'lgan so'zni saqlaydi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin inson omili hamda uning manfaatlar har qachongidan ham yuqori pog'onaga ko'tarildi. Til jamiyat bilan uzviy bog'liq bo'lgani uchun u bilan doimo hamnafas bo'lib, jamiyat bilan birga rivojlanib turadi. Fan va texnika taraqqiyoti natijasida paydo bo'lgan yangicha munosabatlar, yangi narsa, hodisalarni ifoda qilish, ishlab chiqarishni jadallashtirishga aloqador tushunchalarni belgilash maqsadida yaratilgan yangi, hali o'zlashib ketmagan so'zlar neologizm deb ataladi [3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So'z badiiy matnning muhim elementidir, shuning uchun muallif fikrlarini ifodalash uchun kerakli so'zni tanlashi, izlab topishi yoki she'riy ijod jarayonida individual mualliflik asosida yaratish juda muhimdir. Individual neologizmlar ijodiy jarayonning natijasi sifatida matndagi asosiy ma'noviy yukni o'z zimmasiga oladi. Badiiy matnni anglash uchun bu kabi neoplazmalarni o'rganish muhimdir, chunki ular shoirning ijodiy shaxsiyatini, uning badiiy uslubining xususiyatlarini ko'rsatadi. Individual neologizmlar muallifning dunyoni anglashi, idrok etishi, tahlil qilish hamda uni aks ettirish jarayonining natijasidir. Namitokovanning fikricha: "Yozuvchining to'liq hajmdagi dunyo tasavvuri uning ijodiy yondashuvdagi yangi yasalmalarida namoyon bo'ladi". O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilgandan so'ng tilimizda yangi yaratilgan ijodkorlar tomonidan yaratilgan badiiy asarlar soyasida anchayin kengaydi. Nazmiy matnlarga xos yasalmalarni lingvistik-stilistik tahlil etish, ijod jarayonida ijodkor tomonidan yasalgan g'ayrioddiy so'z va ifodalarni shoirona idrok etish, ushbu yaratilgan matn tarkibidan ajrata olish, so'zning nafosati-yu

nazokatidan bahra ola bilish, bu kabi individual yasalmalarning, noodatij qo'llanishlarning umummilliy lug'at xazinasidagi o'rniga baho berish davr tilshunoslarining zimmasiga yuklangan.

Neologizmlarga oid ilmiy izlanishlar XIX asr oxiri va XX asr boshlarida boshlanib, hozirga qadar tadqiqotlar davom etib kelmoqda. Avval tilshunoslar neologizmlarni faqat badiiy asarlarda, badiiy matnlarda o'rganishgan, keyinchalik ijtimoiy-siyosiy hamda ilmiy-texnologik sohalarda ham keng o'rganila boshladi. Yangi so'zlarning doimiy ravishda paydo bo'lishi yangi til hodisalariga doimiy qiziqishni uyg'otadi, ularni turli xil tahlil etishni talab qiladi. Xususan, V.Vinogradov, N.I.Feldman, A.G.Likov, N.G.Babenko, G.O.Vinokur, D.V.Xalyavina kabi olimlar tomonidan jahon adabiyotida alohida o'rin tutgan ijodkorlar Shekspir, B.Pasternak, Mayakovskiy, Kamenskiy, L.Karoll, V.Xlebnikov, V.Mayakovskiy, D.Burlyak, I.Severyaninlarning asarlarida qo'llanilgan neologizmlar o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida individual mualliflik neologizmlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar adabiy tilni hamda lingvistik ijodkorlikni tushunish uchun muhim o'rin tutadi. Bunday tadqiqotlar o'zbek tilining boy imkoniyatlar manbai ekanligini yana bir bor amalda isbotlab beradi. Ushbu mavzu ko'plab tilshunos, adabiyotshunos hamda lug'atshunoslar tomonidan tilshunoslikning stilistik, struktur-semantik, pragmatik, kognitiv, lingvokulturologik aspektlarida o'rganilgan. X.Abdurahmonov, N.Mahmudov, M.Mirtojiyev, B.Umurqulov, Z.Alimova, F.Jumayeva, S.Toshaliyeva, O.To'xtasinova, M.Qurbonova, S.Mardonova kabi olimlar o'zlarining ilmiy tadqiqot ishlarida neologizmlar va okkazonal birliklar mavzusini batafsil yoritgan. Ushbu tadqiqotlar natijasida o'zbek adabiyotining eng yorqin, xususan,

A.Avloniy, Cho'lpon, Oybek, A.Oripov, M.Yusuf, U.Azim, T.Murod, H.Xudoyberdiyeva kabi vakillarining asarlari tili tadqiq etilgan. Hozirda ham ularni turli aspektlarda tadqiq etish davom etib kelmoqda.

Tilning lisoniy imkoniyatlari badiiy ijodda turlicha ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Ayniqsa, muayyan bir ijodkor tomonidan yaratilgan ijodiy-shaxsiy birliklar, ya'ni individual neologizmlar, tilshunoslardan turli nuqtayi nazardan tahlil etilib kelinmoqda. Ushbu sohada tadqiqotlar, asosan, umumiy neologizmlar tahlili bilan chambarchas bog'liq bo'lib, jahonda bu masala ko'p yillik tarixiy asoslarga ega. Xususan, I.A.Boduen, de Kurtene, L.P.Yefremov, R.A.Budagov, N.S.Avilova, E.A.Reyst, V.V.Vinogradov, G.G.Timofeyeva, L.P.Krisin va V.M.Aristova kabi tilshunos olimlar tomonidan bu borada muhim ilmiy ishlar yaratilgan.

O'zbek tilshunosligida esa muallif nutqi neologizmlari ko'pincha okkazonal birliklar sifatida o'rganilib, ularni ikkita asosiy yo'nalishda baholash mumkin: birinchisi, ijodiy-shaxsiy ifodalar bilan bog'liq nazariy va lisoniy omillarni yorituvchi ilmiy izlanishlar; ikkinchisi esa, alohida adiblarning asarlari lingvopoetik jihatdan tahlil qilingan tadqiqotlardir.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi har qanday ilmiy izlanishning eng muhim tarkibiy qismidir. U izlanishning umumiy yo'nalishini, maqsadga erishish yo'llarini hamda kutilayotgan natijaga olib boruvchi mantiqiy bosqichlarni belgilab beradi. Ushbu maqolada tadqiqot jarayoni deduktiv yondashuv asosida tashkil etildi: avvalo umumiy nazariy qarashlar o'rganildi, so'ngra ular asosida badiiy matn tahliliga o'tildi.

Tahlil va natijalar. Shu o'rinda o'zbek tilining boy imkoniyatlarini o'z ijodida aks ettirgan so'z san'atkori, zamonaviy o'zbek shoirasi Farida Afruz o'z ijodida yangidan yangi okkazonal yasalmalarni yasaydi. Yangi yasalmalar, noodatiy birliklar orqali shoir o'z asarlariga milliy kolorit bag'ishlaydi. Shoir ijodida o'ziga xos g'ayriodatiy yasalmalar yaratilish usuliga ko'ra xilma-xil. Ularni lingvostilistik tabiatiga ko'ra, qo'shimchalar vositasida yasalgan okkazonal yasalmalar, so'z qo'shish orqali hosil qilingan kompozitiv yasalmalar, N+N, N+V tarkibli okkazonal so'z birikmalari, P+S tartibidagi okkazonal gaplar tarzida guruhlab o'rganish mumkin. Quyida keltirilgan nazmiy misollar orqali Farida Afruz ijodidagi sodda yasalmalarni tahlil etamiz

1.Sodda yasalmalar.

Men o'zi kimman,
Tashlandiq quduq,
Yomg'irlarning esidan chiqqan,
Baliqlari tashna, j on bergan,
Qamishlari o'yib naylangan ,
Tashlandiq quduq... [1]

Ushbu yasalma ot+ lan (fe'l yasovchi) qolipida hosil bo'lgan. -lan fe'l yasovchi affiksi eng faol fe'l yasovchi qo'shimcha bo'lgan -la hamda -n nisbat qo'shimchasidan hosil bo'lgan. Shu sababdan -la va -lan affikslari bir-biriga yaqin [2]. Ushbu affiks yasovchi asosdan anglashilgan narsa-predmetga o'zini ega qilish (U bilan ta'minlash) ma'nosini bildiradi. Nay so'zi forschadan olingan so'z bo'lib, uzun, ichi teshik narsa, ingichka turba. Nay shishadan yoki qamishdan yasaladi. Yuqoridagi parchadagi individual yasalmada ham tashlandiq, foydalanilmaydigan quduq atrofida o'sgan qamishlardan yasalgan nay haqida gap boradi. Farida Afruz o'zligini, kimligini anglashga urinar ekan o'zini ana shu kimsasiz, yomg'irlarning ham yodidan chiqqan bir quduq singari ko'radi o'zini. Shu o'rinda Maqsud Shayxzodaning "Iskandar Zulqarnayn" dostonida qum bosib yotgan tashlandiq quduq atrofida o'sgan qamishlardan nay yasab, Iskandar sirini bilib olgancho'pon obrazi yodimizga keladi. Quduq atrofida o'sgan qamishlardan birini tanlab oladi va nay yasaydi. Nayni

chalishga urinarkan, bu nay o'zida asrlar sirini saqlagani ayon bo'ladi. Farida Afruz ham o'zini quduqqa qiyoslarkan, o'z atrofida o'sgan qamishlar nay bo'lganda, ko'nglida saqlagani zohir bo'ladi.

Xazonrez bog'larning kuzli, ayozli
Huvildoq tunlari yomg'ir, shamoli
Xo'rlikdan ivigan umidlar ichra
Men sizni topdim... [1]

Yuqoridagi parchada berilgan kuzli yasalmasi ot+ li (sifat yasovchi) qolipida hosil bo'lgan individual yasalma hisoblanadi. Izohli lug'atda kuz so'zi yoz hamda qish o'rtasidagi fasl ma'nosida berilgan. Ko'chma ma'noda esa davrning, masalan, umrning so'nggi, oxirgi damlari mazmunini ham ifodalaydi [4]. -li sifat yasovchi qo'shimchasi orqali sifat yasalmogda. Huvildoq so'zini tahlil qiladigan bo'lsak, ushbu so'zni yasash uchun asos qilib huv-huv so'zi olingan. Huv-huv taqlid so'z hisoblanib shamol esganda chiqadigan ovozni bildiradi [4]. Huvullamoq esa ovoz chiqarib esmoq (sovuq shamol, izg'irin) degan ma'noni anglatadi. Yuqoridagi yasalma esa huv taqlid so'ziga -ildoq qo'shimchasini qo'shish orqal hosil qilingan.

Rus tilshunosi E.A.Zaemskaya XX asr oxiri-XXI asr boshlarini "okkazonalizmlar asri" deb nomalagan. Albatta, har bir okkazonal yasalma tilning lug'at qatlamidan o'rin olmas, ammo ularni kuzatish va o'rganish orqali badiiy matn mohiyatini chuqurroq anglab yetamiz.

Mehribonim,
Men sizni topdim.
Topdim,
Derazamga kakliklar qo'ndi,
Sayradi, sayradim, jon chiqar qadar,
Do'l yoqqan, qahraton, muzli kechalar,
Bebahor gulladim, barg yozdim, samar...

Ushbu yangi yasalma bahor so'ziga be- prefiksini qo'shish orqali hosil qilingan. Be- sifat yasovchisi asosan tojik tilidan o'zlashgan so'zlar tarkibida uchraydi. Asosan, asosdan anglashilgan narsa-hodisaning yo'qligini bildiradi yoki asosdan anglashilgan narsa, hodisaning kam deyarli yo'q ekanligini bildiradi [2]. Bahor forscha ko'klam fasli. Bu faslda daraxtlar kurtak ochadi, chechaklar bosh ko'tarib gullaydi. Farida Afruz esa bahor kelmasdanoq do'l yog'ayotgan, muzli, qahraton kunlarda ham gullagan ishqining o'tashida gullaganini aytmoqda. Ushbu misralar lirikaning ishqiy yo'nalishiga mansub bo'lib, unda shoiming ichki kechinmalari, sevgining quadrati tabiat bilan uyg'unlikda tasvirlangan.

Tilovat qilaman yetti bukilib,
Sanamvash teraklar oq siynasida,
Nomahram bo'salar dog'lari o'chib,
Sargashta bodlarni quchib osuda,
Mening ko'z yoshimdek bormoqda qurib [1].

Sanam so'zi ko'chma ma'noda go'zal dilbar yor ma'nosida keladi. Sanam+ vash (sifat yasovchi) qolipida yasalgan yasama sifat. Ushbu misralar falsafiy ruhda yozilgan bo'lib, inson hayoti, uning orzu-armonlari ifodachisidir. Sanamvash teraklar yorday qad-qomati tik ma'nosini ifodalamoqda. Nomahram bo'salarning dog'lari o'chishi bu xiyonat yoki so'nib bo'lgan his-tuyg'ular ramzi deyishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar. Individual-uslubiy neologizmlar "umumiy neologizm" hodisasining tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur hodisa til lug'at qatlamining boyishida muhim o'rin tutadi. Individual-uslubiy neologizmlar o'zbek tilida so'z yasaliish ma'nosi – unumli so'z yasash qoliplari, yasama so'zning til va nutqqa munosabati bilan bog'liq. Bu jarayonda fe'l, ot, sifat, ravish so'z turkumlarining yasaliish imkoniyatlari turli darajada bo'lib, nutqiy yasama so'zlar miqdori unumli so'z yasash qoliplari bilan belgilanadi. Farida Afruz asarlari

misolida baholaydigan bo'lsak, individual-uslubiy neologizmlar "favqulodda so'z yaratishga bo'lgan ehtiyoj", "she'riyatda qofiyani va she'riy ritmni ta'minlash", "bir umumiy ma'no ostidagi so'zlarga bo'lgan ehtiyoj", "original

murojaat birliklarini yaratishga bo'lgan urinish", "soddalanish mahsuli", "til birliklarining integrativ munosabati ta'siri", "varvar so'zlardan chekinish" va h.k.lar maqsadida yuzaga kelganligi kuzatiladi.

ADABIYOTLAR

1. Farida Afruz. Shamolda sham ko'tarib. – Toshkent: Davr press, 2010. – 319 b.
2. Хожиев А. Ўзбек тили сўз ясаши. – Тошкент: Ўқитувчи, 1989. – В. 80.
3. Ирискулов М. Тилшуносликка кириш–Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б 110.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati VI tomlik. II tom – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2023. – B. 961.